

YO'L QURILISHIDA ZAMONAVIY TALAB VA ME'YORLAR JORIY ETILMOQDA



So'nggi yillarda mamlakatimizda eng oxirgi texnologik yutuqlarni o'zida mujassam etgan keng va ravon avtomobil yo'llarni hamda zamonaviy yo'l o'tkazgichlarni qurish ishlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

Bu boradagi amaliy ishlarni amalga oshirishda Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganish maqsadida Xalqaro moliya institutlari hamda Germaniya, Koreya, Turkiya va Xitoy davlatlaridagi yirik yo'l-qurilish kompaniyalari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatildi.

Shu o'rinda, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Prezidenti Takexiko Nakaoning 2019 yildagi O'zbekistonga qilgan tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi hukumati va Bank o'rtasida erishilgan kelishuv amalga oshirilib, Osiyo taraqqiyot bankining TA 9987-O'ZB sonli "Yo'l sohasini rivojlantirish strategiyasi va harakatlar rejasi" texnik ko'mak loyihasi tasdiqlangan edi.

Buning natijasida, OTB konsultantlari va Avtomobil yo'llari qo'mitasi mutaxassislari tomonidan yo'l sohasiga oid 6 ta texnik qo'llanmalar, 1 ta amaliy ko'rsatma, 2 ta yo'riqnomalar, 3 ta texnik tavsiyalar hamda 3 ta davlat standartlari ishlab chiqildi.

Bular "Ko'priklar. Tayanch devorlar. Suv o'tkazish inshoot quvirlari"; "Sementbeton yo'llarini qurish texnologiyasi"; "Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun beton qoplamalar texnologiyasi"; "Markaziy Osiyo transport infratuzilmasi uchun iqlim o'zgarishiga moslashish chora-tadbirlari (O'zbekiston sharoitida)"; "Asfaltbeton qoplamali yo'llarini qurish, ta'mirlash va saqlash"; "Qoplamadagi yedirilish qatlamini zamonaviy uslubda yotqizish" bo'yicha qo'llanmalar hamda "COVID-19 sharoitida qurilish va ta'mirlash ishlari jarayonida mehnat himoyasi va texnika xavfsizligi" bo'yicha amaliy ko'rsatmalar.

Shuningdek, "Sementbeton qoplamalarini saqlash, ta'mirlash va qayta qurish" va "Yoriqlar va deformatsion choklarni germetiklash uchun bitumli mastikalar, germetiklar va silikonlarni qo'llash" bo'yicha yo'riqnomalar, "Sementbeton qoplamalarining uzoq muddatga chidamliligini oshirish uchun shimdiruvchi tarkibdan foydalanish", "Asfaltbeton qoplamasining xizmat muddatini oshirish uchun maxsus shimdiriluvchi tarkib bilan qayta ishlash" va "Avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlarida "sovuq resaykling" texnologiyasini qo'llash" bo'yicha tavsiyalar, "Maxsus tolalardan foydalanilgan dispersion-mustahkamlangan asfaltobeton qorishmalari va dispersion-

mustahkamlangan asfaltobeton. Texnikaviy shartlar" va "Yo'l va aerodrom uchun chaqirtosh-mastikali polimer asfaltobeton qorishmalari va chaqirtosh-mastikali polimer asfaltobeton. Texnikaviy shartlar" va Yo'l bop modifikatsiyalangan bitumlar. Texnikaviy shartlar" kabi davlat standartlari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda, mazkur qo'llanma va standartlardan Toshkent Transport universiteti olim va talabalari, ilmiy-tekshirish va loyiha institutlari, yo'l-qurilish va uni saqlash ishlari sohasi mutaxassislari tomonidan amaliyotda keng foydalanib kelmoqda.

O'z DS: 3609:2022

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

Махсус тоалардан фойдаланилган дисперсион-муштаҳкамланган асфальтобетон қоришмалари ва дисперсион-муштаҳкамланган асфальтобетон. Техникавий шартлар

Расмий нашр

Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги

Тошкент



ИДОРАВИЙ ҚУРИЛИШ НОРМАЛАРИ

**ЦЕМЕНТБЕТОН ҚОПЛАМАЛАРИНИНГ
УЗОҚ МУДДАТГА ЧИДАМЛИЛИГИНИ
ОШИРИШ УЧУН ШИМДИРУВЧИ
ТАРКИБДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА
ТАВСИЯЛАР**

ИҚН 159-21

**РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПРИМЕНЕНИЮ
ПРОПИТОЧНЫХ СОСТАВОВ ДЛЯ
ПОВЫШЕНИЯ ДОЛГОВЕЧНОСТИ
ЦЕМЕНТОБЕТОННЫХ ПОКРЫТИЙ**

Расмий нашр
(ўзбек ва рус тилларида)

Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги
хузуридаги Автомобил йўллари қўмитаси

Тошкент 2021

O'z DSt 3610:2022

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

Йўл ва аэродром учун чакмқош-мастикали полимер асфальтобетон қоршмалари ва чакмқош-мастикали полимер асфальтобетон.
Техникавий шартлар

Расмий нашр

Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги

Тошкент



ИДОРАВИЙ ҚУРИЛИШ НОРМАЛАРИ

АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛЛАРИНИ ҚУРИШ ВА
РЕКОНСТРУКЦИЯ ҚИЛИШ ИШЛАРИДА
“СОВУҚ РЕСАЙКЛИНГ”
ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚЎЛЛАШ БЎЙИЧА
ТАВСИЯЛАР

ИҚН 161-21

РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПРИМЕНЕНИЮ
ТЕХНОЛОГИИ ХОЛОДНОГО
РЕСАЙКЛИНГА ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ
(РЕКОНСТРУКЦИИ) АВТОМОБИЛЬНЫХ
ДОРОВ

Расмий нашр
(ўзбек ва рус тилларида)

Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги
хузуридаги Автомобил йўллари қўмитаси

Тошкент 2021

Albatta, ishlab chiqilgan ushbu qo'llanma va standartlar yurtimizda yo'lsozlik sohasini rivojlantirishga xizmat qilib, yo'l-qurilish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, avtomobil yo'llarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda yanada zamonaviy, qulay, xavfsiz, ravon va iqlim o'zgarishlariga bardoshli bo'lgan yo'llarning barpo etilishiga olib keladi.

O'z navbatida, sohada amalga oshirilayotgan bunday ijobiy ishlar muhtaram Yurtboshimiz tabiri bilan aytganda oliy janob, mehnatkash xalqimizni rozi qilishga xizmat qiladi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Axborot xizmati